



SARVEPALLI RADHAKRISHNAN FALSAFASIDA ANTROPOLOGIK VA AXLOQIY QARASHLAR

Abdullaziz Abdusattorovich Abduvaxidov

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, Yangiayot tumani
bo'limi "Olchazor" mahallasi yoshlar yetakchisi

Tel: (97) 754-83-01

e-mail: abduvaxidovabdullaziz@gmail.com

TEZIS

Annotatsiya: Radhakrishnan inson tabiati ko'p qirrali ekanligini ta'kidlab, bularni: biologik odam, ijtimoiy odam, siyosiy odam va individual odamlar, deb ajratadi. Biroq faylasuf o'z ta'limotida insonni yuqori darajadagi biologik mavjudot sifatida ko'radi.

Idealist sifatida Radhakrishnan albatta inson tushunchasi va ishlab chiqarish tushunchalarini anglamas edi. U insonni boshqa tirik mavjudotlardan farq qiluvchi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlar, lekin bu xususiyatlarni insonning tana, aql va ruh birligida, deb bilar edi. Ayniqsa, aql va ruh insonni tabiatning boshqa mavjudotlaridan ajratib turadi. Insonning fizik sifatidan ham muhimroq jihati mavjud. Uning tabiatida shunchaki obektiv bo'lmagan element mavjud. Bu jihat insonga tabiatda o'ziga xos o'rin egallashiga sabab bo'ladi.

Inson nafaqat intuitsiyaga ega bo'lgan mavjudot, balki u aql jamlanmasi hamdir. Uning mohiyati fiziologiya, psixologiya yoki sotsiologiyaning obyektiga aylanishi bilan o'zgarib qolmaydi. Radhakrishnan fikricha, insonni fikrlovchi hayvon yoki aql mashinasi sifatida ko'rish, bu bir tomonlama qarashdir va uni bunday talqini uning aslida tub mohiyatini e'tibordan chetda qoldiradi¹. Shu bois faylasuf ilm-fan va texnika zararlarini

¹ Radhakrishnan S. The Indian approach to the religious problem. The Indian mind. Essentials of Indian philosophy and culture. – D.: India, 1992. – P. 243.



ko'rib xayratlangan holda, inson haqida sof mexanik- material mavjudot, avtomatik reflekslardan tarkib topgan qurilma sifatini berib, uning jismoniy qobiliyatlariga yuqori e'tibor berib, aslida uning yuksak ruhiy, axloqiy qobiliyatlarini, ulug' ilohiyligini anglayotgan bizning davrimiz yetakchilarining nuqtai nazarini inkor etar edi.

Shu bilan birga Radhakrishnan inson mavjudotining anglashga ijtimoiy-tarixiy yondashishning ham to'g'ri, deb hisoblamas edi. Bunga ko'ra, individumning tashkil etuvchi belgi, bu insonning mehnat qurolini yarata olishi va uni atrof muhitga qo'llay olishidir. Shu tariqa Radhakrishnan insonning mexanik mavjudot sifatidagi muhimligini inkor etib, insonning borlig'i, uning fiziologik tuzilmasidan iboratligi bilan kifoyalanib qolmasligini ta'kidlab, insonning ijtimoiy tabiatini ham hisobga olishni ta'kidlar edi.

Radhakrishnan shunday yondashuvni yoqlar ediki, unga ko'ra har bir insonda ilohiylik yashiringan. Inson qadr-qimmatini e'tirof etgan holda, yerdagi ilohiylikning muayyan ro'yobi sifatida gavdalanadi. Inson ruh alomatining, yog'dusidir. U tabiatning mahsuli emas. U ilohiylikning bir qismidir. Shu bois yorug'lik va kuch prinsipidir.²

Insonning ilohiy xususiyatlarini ko'rib chiqar ekan, Radhakrishnan buning birligi, mohiyatini ruhiy, ma'naviy boshqarish, deb belgilaydi. Inson o'ziga xos ilohiy mavjudot bo'lib, makon va zamon dunyosiga bog'liq emas, deydi Radhakrishnan. Bunday inson mohiyatining diniy-idealistik izohi "abadiy din" tizimida asosiy o'rini egallovchi ozodlik muammosi yechimini belgilab beradi.

Radhakrishnan ta'limotida inson mohiyatini belgilab beruvchi omil hisoblanuvchi ozodlikni targ'ib etilishi, asl insoniylik yo'nalishini beradi. Faylasuf fikricha, kapitalistik tuzum inson ozodligiga qarshi turadi va ozodlikni mustahkamlashga ko'maklashmaydi. Kapitalistik ijtimoiy tuzum insonlar orasida sog'lom munosabatga hech ham yordam bermaydi. Uning bir qismi ishlab chiqishning barcha vositalariga ega bo'lgan bir vaqtda, boshqalari qul bo'lmasalarda, lekin o'z mehnatlarini ularga belgilab berilgan shartlar asosida sotishga majburlar. Bu esa, Radhakrishnanni mantiqiy xulosaga, insonning ozodlik bilan bog'liq huquqini amalga oshirish uchun ijtimoiy munosabatlarni tubdan

² Radhakrishnan S. The Indian approach to the religious problem. The Indian mind. Essentials of Indian philosophy and culture. – D.: India, 1992. – P. 244.



o'zgartirish, avvalo shaxsiy mulkni yo'q qilish va unga asoslangan inson tomonidan insonni ekspulatatsiya qilinishini inkor etish xulosasiga kelishi lozim edi. Biroq bunday sharoitda bo'lmay va buni xohlamay, hamda idealizm va ilohiylikni qo'lidan chiqarishni xohlamay, ozodlikka erishish yo'lini faqatgina „ichki tabiat“ o'zgartiradi, deb bilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Radhakrishnan S.* The Indian approach to the religious problem. The Indian mind. Essentials of Indian philosophy and culture. – D.: India, 1992.